

GENERAL FEATURES OF TEACHING “PHYSICAL GEOGRAPHY OF CONTINENTS AND OCEANS” BY MEANS OF INTERACTIVE EDUCATIONAL METHODS AND TECHNOLOGIES

Kodirova Mahfuza Makhmudovna

Navoi State Pedagogical Institute, senior teacher

Abstract: it is necessary to create an opportunity for organizing interactive educational technologies and modern methods in the process of teaching “Physical Geography of Continents and Oceans”, creating a transparent system of interactive educational process, high level, excellent assimilation of educational materials by future specialists.

Key words: Modern educational technologies, Natural Sciences, methods of teaching Natural Sciences, educational process.

Ta’limda “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” fanini o’qitish metodikasini takomillashtirib borish, zamonaviy innovatsion texnologiyalar, interfaol usullar hamda rolli didaktik o‘yinlardan unumli foydalanish, o’qitish sifatini oshirishga bo‘lgan yangicha qarashlar, amaliyot mobaynidagi muammoning mamlakatimizda va rivojlangan xorijiy mamlakatlarda o’rganilganligi haqidagi barcha ma’lumotlar nazariy va ilmiy - pedagogik jihatdan tahlil qilindi.

Innovatsion ta’lim sharoitda oliy ta’lim tizimida “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” fanini o’qitish davomida professor - o’qituvchi quyidagi bir nechta vazifalarni amalga oshirish muhim sanaladi:

tabiiy fan negizida olib borilayotgan jarayonlar bilan birlgilikda geografiya ta`limida ham talabalarda o’quv fanlarni o’zlashtirish holati, aynan ushbu fanning o‘ziga xos xususiyati, mavzuning mazmunini hisobga olgan holda, ushbu mutaxassislikka tegishli bo‘lgan umumiylar hamda xususiy kompetensiyalarni shakllantirib borish;

fanlar negizida ta’limi jarayonining ajralmas bo‘lagi hisoblangan geografiya fani bo‘yicha zamonaviy talablarga javob beruvchi o’quv-uslubiy va didaktik ta’minotlarni yangi avlodini yaratish va amaliyotga joriy etib borish;

tabiiy fanlar qatorida geografiya fanining ajralmas qismi sanalgan “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” fani bo‘yicha ta’lim faoliyatida talabalarda umummadaniy kompetensiyani shakllanishi, jumladan yosh avlodni Vatanparvarlik, mehnatsevarlik, tabiatga, atrof-muhitga yaxshi munosabat bo‘la olishi, tabiat

resurslaridan oqilona foydalanish bo`yicha o`quv tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish jarayoni hamda shakllari, metodlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etib borish;

fanlar qatorida “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” fannini o`qitish jarayonida zamonaviy ta`lim texnologiyalarni joriy etish amaliyotini yo`lga qo`yilishi;

tabiiy fan qatorida geografiya bo`limining “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” fanidan modul ta`lim texnologiyasini qo`llash, o`qitish jarayonini rivojlantirish;

Zamon talabiga asosan oliy ta`lim muassasalarida fanlar kesimida zamonaviy yondashuv talab etiladi, jumladan quyidagi zamonaviy yondashuvlar keltirib o`tamiz:

1. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi fanini o`qitish jarayoniga tizimli yondashuv.
2. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi fanini o`qitish jarayoniga modulli yondashuv.
3. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi fanini o`qitish jarayoniga innovasion yondashuv
4. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi fanini o`qitish jarayoniga talaba shaxsiga yo`naltirilgan yondashuv.

Mazkur yondashuvlarga xos xususiyatlarni aniqlash “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” fanini o`qitish metodikasining dolzarb muammolaridan sanalib, har biri mashg`ulotlar davomida alohida ko`rib chiqiladi.

“Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” fanini o`qitish davomida ta`lim jarayonida zamonaviy texnologiyalar va usullardan foydalanishning asosiy ko`rinishi quyidagilardir:

birinchidan, geografiyaning barcha fanlarini olib borish davomida axborot ko`laming juda ko`pligi, kengligi va tezda yangilanib borayotganligini inobatga olish lozim;

ikkinchidan, jamiyatda texnika taraqqiyotining tezlashishi, interaktiv, zamonaviy ta`lim jarayonidagi vositalarini tez taraqqiy qilayotganligi;

uchinchidan, o`qitishning turli xil zamonaviy texnik vositalari taraqqiy etib borayotganligi;

to`rtinchidan, tashqi ta`sirlar, talabalar uchun bundanda qiziqroq bo`lgan omillar, telefon, internet, ijtimoiy tarmoqlarlarning mavjudligi. Bunday ta`sirlar bugungi kun mashg`ulotlarini zamon talabi darajasida o`tishni talab etadi.

Zamonaviy ta`lim sharoitida imkoniyatlarning ko`lami doirasiga ko`ra, bo`lajak mutaxassisni rivojlantirish, ijtimoiylashuv sharoitda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini talabalarda shakllantirish talab qilinmoqda. O`zida shu imkoniyatlarni mujassam etgan ta`lim shaxsga yo`naltirilgan ta`lim deb yuritiladi.

Innovatsion ta`lim jarayonida professor o`qituvchi va bo`lajak mutaxassis o`rtasidagi bir-biri bilan o`zaro munosabatlar hamkorlik va tanlash erkinligining asosiga qurilgan bo`lib, bo`lajak mutaxassisning imkoniyati sifatida aytib o`tish lozim. Jumladan, shaxsga yo`naltirilgan ta`lim texnologiyalarining quyidagi turlari ajratiladi:

1. Modulli ta`lim texnologiyalari.
2. Muammoli ta`lim texnologiyalari.
3. Interfaol ta`lim texnologiyalari.
4. Individual ta`lim texnologiyalari.
5. Masofaviy ta`lim texnologiyalari.
6. Kompyuter ta`lim texnologiyalari.
7. Hamkorlik ta`lim texnologiyalari.
8. Loyiha ta`lim texnologiyalari.
9. Dasturiy ta`lim texnologiyalari.
10. Tabaqalashtirilgan ta`lim texnologiyalari.
11. Rivojlantiruvchi ta`lim texnologiyalari.
12. O`yin texnologiyalari.
13. Gender ta`lim texnologiyalari.
14. Quvvatni tejovchi ta`lim texnologiyalari.

Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi fanidan mashg`ulotlar davomida foydalanib kelinayotgan shaxsga yo`naltirilgan ta`lim aslida, bo`lajak mutaxassisning fikrlash qobiliyati hamda harakat faoliyatini inobatga olgan holda uning shaxsiy imkoniyatlari, o`ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo`naltirilgan ta`lim deb qarash mumkin.

Tadqiqot davomida “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” fanini o`qitish jarayonida hamkorlik ta`lim texnologiyalari va interfaol ta`lim texnologiyalaridan foydalandik.

Interfaol ta`lim metodlari o`quv faoliyatida pedagog va talabalar o`rtasida oldindan belgilangan maqsadlarga tezkorlik bilan, faol, ma`lumotlar almashinushi yordamida amalga oshiriladigan jarayon deb hisoblansa, imkoniyatni yaratib beradi. O`qitish jarayonida interfaol ta`lim metodlari yordamida “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” fanini o`qitish faoliyatini tashkil etilishi turli xulosalarning asoslanish mumkinligini ko`rsatadi:

-talabalarga “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” fani bo`yicha o`zlashtirilishi lozim bo`lgan ma`lumot va materiallarni puxta egallashlari hamda o`z shaxsiy tajribalari asosida yondashishlariga imkon beradi, talab etilgan nazariy bilim, amaliy ko`nikma va yetarlicha malakalar yetarli darajada o`zlashtiriladi;

-bu jarayonlarda o`qituvchi tomonidan ta`lim olish usullari va vositalaridan unumli va o`rinli foydalanilsa, ular bu fanni juda yaxshi o`zlashtiradilar;

- talabalar tomonidan bildirilgan g`oya va fikrlari garchi o`zlarining qarashlariga to`g`ri kelmasada, ularni inobatga olsa, talabalar fanni puxta o`zlashtiradlar.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda fanning umumiy xususiyatlari negizida hosil bo`lgan yutuq va kamchiliklarni aniqlashga yordam beradi.

“Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” fanini o`qitishda interfaol ta`lim jarayonini joriy qilishning afzalliklari quyidagilar:

-talabalarda Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi va shu kabi mavzular bo`yicha o`z shaxsiy fikr-mulohazalarini erkin bildirish;

-talabalarning o`z qarashlarini himoya qilish;

-tengdoshlarining fikrini tinglay olish, ularni umumlashtirish, bildirilgan fikrlar orasidan eng muqobil va haqiqatga yaqinlarini ajrata olish va xulosalar qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirish;

-interfaol ta`lim metodlarining to`g`ri va samarali foydalanishi orqali ta`lim jarayonlari o`zaro hamkorlikda, faollikda hamda yangi g`oyalarning yaratilishiga asos bo`ladi.

Bevosita fanni o`qitish metodikasini takomillashtirish borasida gap ketar ekan, bunda talabalarning ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish masalasiga ham alohida e`tibor qaratish talab etiladi.

Bo`lajak mutaxassislarning shaxsiy ijodiy faoliyatlarining o`ziga xos elementlari asosida hosil bo`lgan tajribasini shakllantirish muammosiga doir umumiy tajribalar tabiiy fan asosida ya`ni, geografiya fanini o`qitish metodikasida

ham mavjud bo`lgan muammolarning mazmun - mohiyati, tuzilish chizmasi va umumiy darajalarini muhim belgilashga yordam beradi. Rossiyalik olim P.A.Orjekovskiy ta`lim tizimida mutaxassislarning ijodiy faoliyatini rivojlantirib borish, ularda mavjud muammolarni o`rganib chiqish, mutaxassislarda ijodiy faoliyat tajribasini jarayonli ya`ni, ko`nikma darajasida, balki shaxsiy va refleksiv tarkibiy qismlarni ham hisobga olgan holda shakllantirish zarurligini asoslab bergen.

Quyida biz “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyası” fanini o`qitish metodikasini takomillashtirishga xizmat qiluvchi interfaol metodlardan namunalar keltiramiz.

1. “Muammo” texnologiyasi - talabalarga fan mavzularidan kelib chiqib, turli xil muammoli vaziyat yoki muammoli masalalarning yechimini tez, oson va to`g`ri topishlariga o`rgatish, ularda muammoning asl mohiyatini aniqlash yuzasidan amaliy ko`nikma va malakalarni rivojlantirish, mavjud muammoni hal qilishning ayrim usullari bilan tanishtirish hamda muammoni yechishda mos usullarni to`g`ri tanlashga o`rgatish, muammoning kelib chiqish sabablarini va uni yechishdagi amalga oshiriladigan hatti-harakatlarni to`g`ri aniqlashga o`rgatishda foydalanish tavsiya etiladi (1-jadvalga qarang).

1-jadval.


Dunyo okeani mavzusi misolida

Muammo ning turi	Muammoni kelib chiqish sabablari	Muammoni yechish yo`llari va Sizning harakatlariningiz
Dunyo okeani suvlarining ifloslanishi va uning oqibatlari	Dunyo okeanining maydoni 361 mln. km ² . Dunyo okeani gidrosfera suvlarining 96,5%ini takil kiladi. Ular Yer yuzasini 70,8%ini qoplab yotadi. dunyo okeani juda katta biologik resursga ega. Ularning ko`p bo`lishi suvning toza saqlanishiga bog`liq. Lekin so`nggi davrda ko`plab kema qatnashi, shahar chiqindilarining dengiz	Dunyo okeaniga neft tashiydigan va undagi umumiy jihatlar bo`yicha kemalar yiliga 10 mln.t.dan ortiq neft va neft mahsulotlari tashlamoqda. Okean suviga sutkasiga 6800 kub metr zaharli ximikatlar oqizilmoqda. Demak, juda katta oziq-ovqat, mineral va

	<p>suvlariga oqizilishi va suvda bombalar portlatilishi, radiaktiv moddalarning miqdorining ortib borishi okean biomassasining kamayib ketishiga va zaharlanishiga olib kelmoqda. Okean suvini neft va kimyo sanoati chiqindilari ko'p ifloslamoqda. Shuningdek, Dunyo okeaniga atmosferadan 9 mln.t yoqilgan neft va neft chiqindilari ham tushmoqda.</p>	<p>energiya resursiga ega bo'lgan okean suvlarini toza saqlash muhim ahamiyatga ega. Buning uchun zararli va zaharli chiqindilarni, neft mahsulotlarini okean va dengizga tashlamaslik, atom va vodorod bombalarini sinashni to'xtatish, radioaktiv chiqindilarni okean tagiga cho'ktirib yuborishga chek qo'yish kerak.</p>
--	--	--

2. “Qarorar shajarasi” metodi muayyan asoslari borasidagi bir qadar murakkab mavzularni o`zlashtirish, ma'lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan birnecha xulosalar orasidan eng maqbul hamda to`g`risini topishga yo`naltirilgan texnik yondashuvdir. Ushbu metod, shuningdek avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qarorlar mohiyatini yana bir bora tahlil etish va uni mukammal tushunishga xizmat qiladi.

Guruh ishtirokida qo'llaniladigan “Qarorlar shajarasi” bir necha o'n nafar o`quvchilarining bilimlari darajasini aniqlash, ularning fikrlarini jamlash va baholash imkonini beradi. Ta'lim jarayonida mazkur metodning qo'llanilishi muayyan muammo yuzasidan oqilona qaror qabul qilishda talabalar tomonidan bildirilayotgan har bir variant, ularning maqbul hamda nomaqbul jihatlarini mufassal tahlil etish imkoniyatini yaratadi. Mashg`ulot mufassal tahlil etish imkoniyatini yaratadi. Mashg`ulot jarayonida o`quvchilar chizma asosida tuzilgan jadvalni to`ldiradilar.





QAROR

Avstraliya materigi qadimda Gondvana tarkibidagi materik bo`lib, mezozoy erasidan boshlab alohida taraqqiy etdi. Subekvatorial , tropik va subtropik kengliklarning sernam va issiq iqlim sharoitlarida tabiatli alohida shakllandi. Quruqlik orqali boshqa materiklar bilan aloqaning bo`limganligi va muzliklarning ta`siri sezilmaganligi bois tabiatining noyob endimik turlari rivojlandi.

“QARORLAR SHAJARASI” METODI					
UMUMIY MUAMMO					
1-qaror varianti		2-qaror varianti		3-qaror varianti	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi
QAROR:					

«Qarorlar shajarasi» metodi quyidagi shartlar asosida qo`llaniladi:

1. O`qituvchi mashg`ulot boshlanishidan oldin munozara, tahlil uchun mavzuga oid biror muammoni belgilaydi. Guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosa (qaror)larni yozish uchun plakatlarni tayyorlaydi.
2. O`qituvchi tahsil oluvchilarni 4 yoki 6 nafar kishilardan iborat guruhlarga ajratadi. Muammoning hal etilishi, u borada eng maqbul qarorning qabul qilinishi uchun muayyan vaqt belgilanadi.
3. Qarorni qabul qilish jarayonida guruhlarning har bir a`zosi tomonidan bildirilayotgan variantlarning maqbullik hamda nomaqbullik darajalari batafsil muhokama qilinadi. Har bir variantning afzallik va noafzallik jihatlari yozib

boriladi. Bildirilgan variantlar asosida muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiluvchi usul xususida guruh a'zolari bir to'xtamga kelib oladilar.

4. Munozara uchun ajratilgan vaqt nihoyasiga yetgach, har bir guruh a'zolari o'z guruhi qarori borasida axborot beradilar. Zarur hollarda o'qituvchi rahbarligida barcha tahsil oluvchilar bildirilgan xulosa (qaror)larni bir-biri bilan qiyoslaydilar.

Muammo yuzasidan bildirilgan qarorlar borasida savollar tug'ilgudek bo`lsa, ularga javoblar qaytarilib boriladi, noaniqliklarga aniqlik kiritiladi. Agarda barcha guruhlar tomonidan muammo yuzasidan bir xil qarorga keltingan bo`lsa, o'qituvchi buning sababini izohlaydi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, tabiiy fan doirasidagi yondosh geografiya bo'limida ham talabalarning ijodiy faoliyat muammosiga turli xil yondashuvlarning qiyosiy tahlilidan ma'lum bo'ladiki, uni jarayonli amaliy ko'nikmalar, shaxsiy va refleksiv tarkibiy qismlardan tashkil topgan murakkab tuzilma, umumiy sahifa sifatida ko'rib chiqishga imkon berishga undaydi.

Adabiyotlar:

1. Vaxobov. X.«Geografiya o'qitish metodikasi». T., «O'qituvchi»-2007.
2. Saidahmedov N.S. Didaktik jarayon loyihasining interfaol metodlari T., 2005.
3. Tolipov O'.Q, M. Usmonboyeva Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiyl asoslari. T., 2006.
4. Мухитдинова Ф. А., Хайитов Ш. Р., Саибназаров М. А. ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОЕ ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЕЖИ ПРИ ПОДГОТОВКЕ ЮРИДИЧЕСКИХ КАДРОВ В СИСТЕМЕ СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН //BBK. – 2020. – Т. 87. – С. 797.